SIRDARYO VILOYATI SARDOBA TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

120800, Paxtaobod shaharchasi, Do'stlik ko'chasi,22uy, tel: (67)344-17-77, e-mail: sardoba.t@exat.uz

2023 - yil 5 - aprel 101-9-127-Q/23 Sardoba tuman hokimligi

TUMAN HUDUDIGA YO‘L BELGILARINI O‘RNATISH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-aprelda “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash shuningdek, “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” umummilliy dasturini amalga oshirish maqsadida, tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 21-fevraldagi 42-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 21-fevraldagi 42-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tuman hududidagi 4R-199 “Dashtobod-Nayman (28 km) Sh.Rashidov DFX-Paxtaobod q.-Yangiyer-Paxtakor (59 kv)” (0-37 kv) yo‘lidagi 4-5 km.lar va 29-30 km.lar oralig‘ida harakatni tartibga soluvchi, taqiqlovchi 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”, 29-30 km.lar oralig‘ida axborot-ko‘rsatkich belgilari 5.16.2 “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgilarini **o‘rnatilishiga ruxsat etilsin.**

3. Sardoba tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi rahbari Z.Jumanazarovga ushbu yo‘l belgilari o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman Yo‘l xarakati havfsizligi bo‘limi E.Bayzakovga:

mazkur avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish vazifasi yuklansin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati U.Jurayevga, tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o’rinbosari B.Tursunmurodov zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Mirzayev**